

AREAL AND ETHNOLINGUISTIC STUDY OF THE FOOD LEXICAN OF KUMKURGON DISTRICT

(On the example of the Kun'gorat and Yuz Uzbek dialects)

Mukhlisa Davronova

Termez State University, 1st-year Master's student

Abstract. This article analyzes the role of the ethnic factor and phonetic patterns in the formation of food vocabulary in the Kumkurgan district of the Surkhondaryo region. The object of the study is the names of food in the dialects of the main ethnic groups of the region — the Kungrat and Yuz tribes. The article highlights the areal-linguistic boundaries of local lexemes, as well as phonetic phenomena such as synharmonism, labialization, and vowel reduction.

Keywords. Ethnolinguistics, areal linguistics, Kungrat tribe, Yuz tribe, Karamuyin, Tugiz, food vocabulary, synharmonism, a-vowel reduction, labialization.

QUMQO‘RG‘ON TUMANI OZIQ-OVQAT LEKSIKASINING AREAL VA ETNOLINGVISTIK TADQIQI

(Qo‘ng‘irot va Yuz urug‘lari shevalari misolida)

Muxlisa Davronova

Termiz davlat universiteti, 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani oziq-ovqat leksikasining shakllanishida etnik omil va fonetik qonuniyatlarning o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida hududning tayanch etnoslari bo‘lgan Qo‘ng‘irot va Yuz urug‘lari shevalaridagi oziq-ovqat nomlari olingan. Maqolada "jalama-jolama", "shirmimich", "gilagay" kabi lokal leksemalarning areal-lingvistik chegaralari hamda singarmonizm, o‘-lashish va a-lashish kabi fonetik hodisalar yoritilgan. Natijalar oziq-ovqat nomlarining nafaqat moddiy madaniyat namunasi, balki etnomadaniy kodlar ekanligini isbotlaydi.

Kalit soʻzlar. Etnolingvistika, areallingvistika, Qoʻngʻirot urugʻi, Yuz urugʻi, Qoramoyin, Toʻgʻiz, oziq-ovqat leksikasi, singarmonizm, a-lashish, oʻ-lashish.

Мухлиса Давронова

Термезский государственный университет, магистрант 1-го курса

Аннотация. В данной статье анализируется роль этнического фактора и фонетических закономерностей в формировании лексики продуктов питания Кумкурганского района Сурхандарьинской области. Объектом исследования послужили названия блюд в диалектах основных этносов региона — родов Кунграт и Юз. В статье освещаются ареально-лингвистические границы локальных лексем, а также фонетические явления, такие как сингармонизм, оканье и аканье.

Ключевые слова. Этнолингвистика, ареальная лингвистика, род Кунграт, род Юз, Карамуйин, Тугиз, лексика продуктов питания, сингармонизм, аканье, оканье.

KIRISH

Oʻzbek tilining shevalari boy leksik qatlamga ega boʻlib, unda xalqning kundalik turmushi, urf-odatlar va madaniyati oʻz aksini topadi. Ayniqsa, oziq-ovqat nomlari bilan bogʻliq leksemalar hududiy farqlanish jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Areal lingvistika nuqtayi nazaridan bunday birliklar tilning geografik tarqalishi va tarixiy rivojlanish jarayonini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Oʻzbek tili leksikasida oziq-ovqat nomlari xalqning moddiy madaniyati va etnik tarixini saqlovchi eng barqaror qatlamlardan biri hisoblanadi. Akademik A.Hojiyev taʼkidlaganidek, leksika til taraqqiyotining barcha bosqichlarini oʻzida aks ettiruvchi va qadimiy qatlamlarni (arxaizmlarni) konservatsiya qilish xususiyatiga ega boʻlgan sohadir [Hojiyev A.,1981:45].

Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumani o'zbek shevashunosligida o'ziga xos etnolingvistik muhitga ega. Bu hududda o'zbek xalqining yirik etnik guruhlari — Qo'ng'iro't va Yuz urug'larining azaldan yonma-yon istiqomat qilishi kulinariya leksikasida boy dialektal variantdorlikni vujudga keltirgan. Professor Sh.Shoabdurahmonov o'zbek dialektologiyasida qo'ng'iro'tlar shevasining o'ziga xosligini ularning chorvachilik va o'troq hayot tarzi tutashgan nuqtadagi lisoniy manzarasi bilan izohlaydi [Shoabdurahmonov Sh., 1980:112]. Mazkur tadqiqotning maqsadi ushbu hududdagi oziq-ovqat nomlarini tizimlashtirish va ularning fonetik-areal xususiyatlarini yoritib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek dialektologiyasi va leksikologiyasida janubiy shevalar, xususan, Surxondaryo viloyati kulinariya leksikasi bir qancha fundamental tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Akademik A.Hojiyev o'zbek tili leksikasini tizimli o'rganish jarayonida oziq-ovqat nomlarini tilning eng barqaror va o'zgarishlarga chidamli qatlami sifatida baholaydi. Olimning fikricha, dialektal leksika adabiy tildagi lug'aviy bo'shliqlarni to'ldiruvchi va tilning tarixiy ildizlarini ko'rsatuvchi asosiy manba hisoblanadi [Hojiyev A.,1981]. Bu holat Qumqo'rg'on tumanidagi Qoramo'yin va To'g'iz urug'lari nutqida saqlangan "gilagay", "jalama" kabi arxaik taom nomlarining ilmiy qimmatini belgilaydi.

Professor Sh.Shoabdurahmonov o'zbek shevalari tasnifida etnik omilga birlamchi e'tibor qaratib, qipchoq lahjalari, xususan, qo'ng'iro'tlar shevasining o'ziga xosligini ularning chorvachilik va lalmikor dehqonchilik bilan bog'liq hayot tarzida ko'radi [Shoabdurahmonov Sh., 1980]. Qumqo'rg'on hududida Qo'ng'iro't va Yuz urug'larining uzoq vaqt davomida yonma-yon istiqomat qilishi natijasida oziq-ovqat nomlarida boy fonetik variantdorlik yuzaga kelganligi kuzatiladi.

M.Mirtojiev o'zbek tili semasiologiyasiga oid ishlarida oziq-ovqat nomlaridagi fonetik o'zgarishlar (masalan, Jalama va Jolama variantlari) so'zning semantik

mohiyatini o'zgartirmasligini, balki so'zlovchining qaysi etnik arealdan ekanligini anglatuvchi "lisoniy marker" vazifasini o'tashini ta'kidlaydi [Mirtojdiyev M., 2010:235]. Bu esa Oboxli va Oltiqora urug'lari nutqidagi lisoniy o'ziga xosliklarni tushunishga yordam beradi.

Turkiy xalqlarning qadimiy kulinariya terminologiyasi bo'yicha Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari eng muhim manba bo'lib, Qumqo'rg'on shevasidagi "Keskan osh" yoki "Umoch osh" kabi birliklar ushbu asardagi "osh" (suyuq taom) semasini bugungi kungacha o'zida saqlab kelayotganligi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi [Mahmud Qoshg'ariy, 1967:92]. Shuningdek, B.To'rayev Surxondaryo shevalaridagi oziq-ovqat leksikasini "etnomadaniy kodlar" deb atab, ular orqali xalqning o'tmishdagi ijtimoiy tuzilishini tiklash mumkinligini qayd etadi [To'rayev B., 2015].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Qumqo'rg'on oziq-ovqat leksikasi o'zbek tilshunosligida ham fonetik, ham etnolingvistik nuqtayi nazardan keng ko'lamlı tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qumqo'rg'on tumani oziq-ovqat leksikasini tadqiq etish jarayonida olingan natijalar hududning etnik xaritasi va lisoniy qatlamlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Muhokama jarayonida asosiy e'tibor Qo'ng'iro't urug'ining ichki tarmoqlari hamda Yuz urug'i areallari o'rtasidagi farqlarga qaratildi.

1. Qo'ng'iro't urug'i areali: Etnik tarmoqlar va lisoniy o'ziga xoslik

Qo'ng'iro'tlar areali qipchoq lahjasining eng barqaror xususiyatlarini (singarmonizm, "j"-lashish) o'zida saqlab qolgan. Tadqiqot davomida ushbu urug'ning ichki tarmoqlari nutqida quyidagi natijalar qayd etildi:

Qoramo'yin va To'g'iz tarmoqlari: Bu guruhlar asosan tumanning dasht va tog'oldi hududlarida yashashi sababli, ularning nutqida "a-lashish" hodisasi o'ta barqaror. Masalan, adabiy tildagi "jo'xori" so'zi bu yerda "jaxari", "qatlama" so'zi esa "qallama"

shaklida qo'llaniladi. Shuningdek, qadimiy turkiy qatlamga xos bo'lgan unlilar ohangdoshligi (singarmonizm) "g'atyg'" (qatiq) so'zi misolida saqlangan.

Oltiqora va Oboxli tarmoqlari: Bu guruhlar nutqida kulinariya terminologiyasi o'ziga xos derivatsion (yasalish) modellarga ega. Xususan, "shirmimich" (shirguruch) leksemasida kuzatiladigan $b > m$ o'zgarishi (m-lashish) ushbu mikroshevalarning lokal markeridir.

Qo'ng'irotlar nutqidagi nonpalov, nonto'shama, nonto'ppa kabi birliklar xamirning go'sht ustiga "to'shash" yoki "bosish" texnologiyasiga ko'ra nomlangan bo'lib, bu chorvador aholining qozon ichida bir vaqtning o'zida ham non, ham ovqat pishirish kognitiv modelini aks ettiradi.

2. Yuz urug'i areali:

Tuman markaziy va sug'oriladigan dehqonchilik areallarida yashovchi Yuz urug'i vakillari nutqida o'troq qarluq shevalari va adabiy tilning ta'siri sezilarli darajada kuchli:

Lablanish (O'-lashish): Yuz urug'i areallarida "a" tovushining lablangan "o" (yoki o')ga o'tishi asosiy fonetik markerdir. Masalan: halvaytar\xolvaytar, chalop\cholop, jalama\jolama.

3. Fonetik variantdorlik va semantik arxaizmlar

Tadqiqot natijalari oziq-ovqat nomlaridagi unlilar almashinuvi hududiy va etnik xususiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Dasht hududlarida (Qoramo'yin, To'g'iz) "a" tovushining barqarorligi, markaziy areallarda (Yuz, Oboxli) esa "o" tovushining ustunligi kuzatiladi.

Kognitiv jihatdan "osh" leksemasining qo'llanilishi o'ta xosdir. Adabiy tilda bu so'z "palov" yoki "umumiy taom" ma'nosini anglatasa, tadqiq qilingan Qumqo'rg'on shevalarida (keskan osh, umoch osh) u Mahmud Qoshg'ariy davridagi kabi aynan "suyuq xamirli taom" (sho'rva) semasini saqlab qolgan (Mahmud Qoshg'ariy, 1967: 92). Shuningdek, "g'ilmindi" leksemasi hududdagi barcha urug'lar uchun "marosim

taomi" freymini hosil qiladi, biroq uning tayyorlanish usuli va nomi fonetik jihatdan urug'lararo kichik tafovutlarga ega bo'lib, xalqning moddiy madaniyatidagi xilma-xillikni namoyon etadi.

XULOSA

Qumqo'rg'on tumani oziq-ovqat leksikasini etnolingvistik jihatdan tadqiq etish natijasida hududdagi oziq-ovqat nomlari shunchaki iste'mol mahsulotlari majmuasi emas, balki Qo'ng'iro't (uning Qoramo'yin, To'g'iz, Oltiqora, Oboxli tarmoqlari) va Yuz urug'larining tarixiy-lisoniy xotirasini saqlovchi barqaror etnomadaniy kodlar ekanligi ma'lum bo'ldi. Taom nomlari va ularning tayyorlanish usullari etnik guruhlarning o'tmishdagi xo'jalik yuritish turmushi, xususan, chorvachilik va dehqonchilik an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bugungi kunda ham shevada kuchli lisoniy marker vazifasini o'tamoqda.

Oziq-ovqat leksikasida kuzatilgan "a-lashish" (Jalama, Jaxari) va "o'-lashish" (Jolama, Jo'xari) kabi fonetik hodisalar tuman hududida aniq izoglossalarni, ya'ni sheva chegaralarini belgilab beradi. Qipchoq lahjasiga xos bo'lgan unlilar ohangdoshligi (singarmonizm) va "j-lashish" hodisalari Qo'ng'iro't urug'ining dasht areallarida barqaror saqlanib qolgan bo'lsa, markaziy hududlarda o'troq qarluq shevalari ta'sirida lablanish jarayoni ustunlik qilishi ilmiy jihatdan isbotlandi. Bu holat hududiy dialektlarning shakllanishida etnik tarkibiy qismlarning o'rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi.

Filologik jihatdan Qumqo'rg'on oziq-ovqat terminologiyasidagi "Keskan osh" va "Umoch osh" kabi birliklar alohida qimmatga ega. Ularning tarkibidagi "osh" leksemasi o'zbek tili tarixining eng qadimiy qatlamlarini, xususan, Mahmud Qoshg'ariy davridagi semantik ma'noni, ya'ni "suyuq taom" tushunchasini bugungi kungacha o'zida sof holda saqlab kelmoqda. Bunday leksik-semantik arxaizmlar hududiy shevalarning o'zbek tili

tarixi va etimologiyasini o‘rganishda naqadar boy va birlamchi manba ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
3. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
4. To‘rayev B. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2015.
5. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Fan, 1967.